



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARNING AQLIY
TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV
MASALALARI ABDULLA AVLONIY O'GITLARI MISOLIDA**

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

oltinoyadhamova@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqola tasviriy san'at darslarida talabalarning aqliy tarbiyanisini shakllantirishda pedagogik yondashuv masalalarini Abdulla Avloniy o'g'itlari misolida yoritadi hamda ularda estetik, aqliy hissiy tarbiyani rivojlantirish omillari xususidagi ma'lumotlar va yoshlarda aqliy tarbiyani shakllantirishda pedagogik yondashuvning ahamiyati borasida Abdulla Avloniy ta'limotining o'rni yoritilgan. Maqolada aqliy tarbiyaning mohiyati, uning pedagogik tamoyillari va Abdulla Avloniy o'g'itlari asosida amalga oshiriladigan yondashuvlar batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bilish faoliyati, hamkorlik, bolaning ongi, hissiyot, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivoji, og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog.

**ВОПРОСЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В
ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА
УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ПРИМЕРЕ**

Аннотация:

В данной статье освещаются вопросы педагогического подхода в формировании умственного воспитания учащихся на уроках изобразительного искусства на примере учения Абдуллы Авлония, а также освещаются сведения о факторах развития эстетического, умственного и эмоционального воспитания и роли учения Абдуллы Авлония в формировании умственного воспитания молодежи. В статье подробно



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

анализируется сущность умственного воспитания, его педагогические принципы и подходы, реализуемые на основе учения Абдуллы Авлония.

Ключевые слова: познавательная деятельность, сотрудничество, развитие ума ребенка, эмоции, интерес к науке и способностям, словесное творчество, великий мыслитель, педагог.

ISSUES OF PEDAGOGICAL APPROACH IN FORMING THE MENTAL EDUCATION OF STUDENTS IN FINE ARTS LESSONS ON THE EXAMPLE OF ABDULLA AVLONIY'S TEACHINGS

Annotation:

This article highlights the issues of pedagogical approach in forming the mental education of students in fine art lessons on the example of Abdulla Avloniy's teachings, and they highlight the information on the factors of developing aesthetic, mental and emotional education and the role of Abdulla Avloniy's teachings in the formation of mental education in young people. The article analyzes in detail the essence of mental education, its pedagogical principles and approaches implemented on the basis of Abdulla Avloniy's teachings.

Keywords: cognitive activity, cooperation, development of the child's mind, emotions, interest in science and abilities, verbal creativity, great thinker, educator.

Kirish

Tasviriy san'at — insonning estetik didini, ijodkorlikni, tafakkurini rivojlantirishda ajralmas vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'quv jarayonida tasviriy san'atni o'rganish nafaqat texnik ko'nikmalarni oshirishga, balki aqliy tarbiyani shakllantirishga ham katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, pedagogik yondashuvlar o'quvchilarni estetik jihatdan kamolotga erishishga, dunyoqarashini shakllantirishga, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shu ma'noda, o'z asarlarida milliy va ma'rifiy tarbiya masalalariga katta e'tibor



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

qaratgan Abdulla Avloniy o'g'itlari tasviriy san'at darslarida aqliy tarbiyaga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniy, o'zbek pedagogikasining mashhur namoyandalaridan biri bo'lib, tarbiya masalasiga katta ahamiyat bergan. U o'z asarlarida, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, aqliy va estetik tarbiyasiga alohida urg'u bergan. Avloniy ta'lim tizimida talabalarga faqat ilmiy bilimlar beribgina qolmay, balki ularda jismoniy, ma'naviy va estetik fazilatlarni ham shakllantirish kerak deb hisoblagan. Uning pedagogik yondashuvlari o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytiradi va ularni faqat bilim olishga emas, balki jamiyatda o'z o'rnini topishga ham tayyorlaydi.

Tasviriy San'at va Aqliy Tarbiya. Tasviriy san'at darslarida aqliy tarbiya shakllantirishda, Avloniy o'g'itlariga asoslanib, o'quvchilarda bir qator ijtimoiy va estetik qadriyatlar rivojlantirilishi mumkin. Avloniy o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, va dunyoqarashini kengaytirish masalasida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratgan:

Ijodiy yondashuv: Tasviriy san'at, o'quvchilarga nafaqat rassomlik san'atini o'rgatadi, balki ularni o'z fikrini ifodalashga, yangi g'oyalar yaratishga va ijodiy qarorlar qabul qilishga undaydi. Avloniyning ta'limda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvi, o'quvchilarga o'zlari yaratgan asarlari orqali o'z dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Estetik didni rivojlantirish: Abdulla Avloniy san'atni insonni yaxshilikka, go'zallikka intilishga o'rgatadigan vosita deb bilgan. Tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilar estetik tafakkurini rivojlantiradi, go'zallik va san'atning ahamiyatini anglashadi. Avloniyning o'g'itlaridan kelib chiqqan holda, san'at ta'limi o'quvchilarda estetik didni rivojlantiradi, ularning go'zallikni anglash va qadrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Axloqiy tarbiya: Avloniy nafaqat aqliy, balki ma'naviy va axloqiy tarbiyani ham muhim deb bilgan. Tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarni xushmuomalalik, insof va adolat kabi axloqiy fazilatlar bilan tanishtirish mumkin. Tasviriy san'atning har bir asari o'quvchilarga nafaqat vizual, balki axloqiy qarorlarni ham taqdim etadi, chunki har bir tasvir biror ma'naviy mazmunga ega bo'ladi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Tafakkur va mantiqiy fikrlash: Tasviriy san'at darslarida rasm chizish va boshqa san'at turlarini o'rganish, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Ular kompozitsiya va ranglar orqali o'z fikrlarini ifodalashadi, shuningdek, chizgan rasm va asarlarini tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlashni o'rganadilar. Bu Avloniy ta'limida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishning ajoyib namunasi. Pedagogik Yondashuv va O'quv Jarayonidagi Ahmiyati. Abdulla Avloniy o'zining pedagogik faoliyatida nafaqat bilimlarni o'rgatishga, balki o'quvchilarda aqliy va ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga katta ahamiyat bergan. Uning o'gitlaridan kelib chiqqan holda, tasviriy san'at darslari o'quvchilarning quyidagi jihatlarini rivojlantiradi. Aqliy faoliyatni iivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirishni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak. Talaba yoshlarni o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi.

Ijodiy fikrlash: O'quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantirish, ularga mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Estetik tafakkur: O'quvchilar go'zallik va san'atni qadrlashga, shuningdek, ularni yaratishga o'rgatadi. Insoniy qadriyatlar: San'at o'quvchilarga insoniy fazilatlar va axloqiy qadriyatlarni o'rgatadi, shu bilan birga ularni yaxshilikka intilishga undaydi.

Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishda Sharq va G'arbning qomusiy olim va pedagoglarining o'рни kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining qator asarlarida ta'lim-tarbiyaga kata e'tibor bilan qaraganlar. Faylasuf olim Forobiy o'zining



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

«Fozil shahar kishilarining qarashlari» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi. Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. «Pedagogika — Abdulla Avloniyning yozishicha, — bola tarbiyasining fani, demakdir». «Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir», «Dars oluvchi—biluvchi, tarbiya oluvchi—amal qiluvchidir». Bu erda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi. Bu sohada Sharq va G'arb xalqlari yaratgan og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta'lim-tarbiyaga doyr ilg'or fikrlarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish biz uchun juda qimmatlidir: — ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalari amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak tarbiyachi — o'qituvchilarga o'rgatish hamda xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish; — maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Xulosa

Tasviriy san'at darslari orqali aqliy tarbiyaga erishish, pedagogik yondashuvlarni samarali qo'llash orqali amalga oshiriladi. Abdulla Avloniy o'g'itlari o'quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularni ma'naviy va estetik jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan. Avloniyning pedagogik yondashuvi tasviriy san'at darslarini nafaqat ijodiy, balki aqliy va ma'naviy tarbiya jarayoniga aylantiradi. Aqliy tarbiyani shakllantirish jarayoni zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda Abdulla Avloniy o'g'itlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir bola o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun ta'lim jarayonida bilim berish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish muhimdir. Tasviriy san'at darslarida aqliy tarbiyaga erishish orqali o'quvchilar



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

nafaqat san'atni o'rganadi, balki o'z ichki dunyosini rivojlantirib, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslar bo'lib kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq".
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch".
3. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
4. Pedagogika nazariyasi bo'yicha zamonaviy ilmiy maqolalar.
5. Internet manbalari.